Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish


Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 1107 sahifa.
2026-yil, №10. oktabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119
TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148

RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247
MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar)……322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari……331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики……338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish……347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari……358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida)……365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari……373
ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH
Long-term asset valuation and accounting in Uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards……381
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar……389
KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari……395
IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash yo‘llari……401
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo‘yicha statistik tahlili……407
MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari (Xorazm viloyati misolida)……413
SHIRINOV UCHQUN ABDUXALILOVICH
MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi..421
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish……430
SA’DULLAYEVA SAYYORA NASILLO QIZI
Neft-gaz sanoati korxonalarida moddiy xarajatlarning kompleks tahlili……439
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari……447

SATTAROV SHUXRAT XASANOVICH
O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi va diversifikatsiya tendensiyalari……458
KAMALKARIEVA NILUFAR XALIKBEKOVNA
Qurilish materiallari korxonalarida yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish va sifatni oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash……467
СЕЙТНАЗАРОВ БАХАДИР МУРАТБАЕВИЧ
Экономическая оценка устойчивого развития аграрного сектора в условиях дефицита водных ресурсов (на примере Республики Каракалпакстан)……475
TURDIYEV ULUG‘BEK QAYUMOVICH
Sanoat o‘sishining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash……484
OBLOQULOV ABDURAUF OLIMJON O‘G‘LI
Institutsional iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish: rasmiy va norasmiy institutlarning roli……493
JUMANAZAROV KODIRJON SALYAYEVICH
Sanoat korxonalarida raqamli strategiyani shakllantirishning metodologik yondashuvlari……501
NARMAMATOV IXTIYAR BAXTIYAROVICH, SHERMATOVA NARGIZA ZAFAR QIZI
Zamonaviy bozor sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash strategiyalari……512
ALIYEV AZIM TOLIB O‘G‘LI
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish: nazariy-amaliy tahlil va modellashtirish……518
ABDULLAYEVA AZIZA MURAT QIZI
Ipoteka kreditlashning nazariy asoslari va xorijiy modellari: AQSH, Germaniya, Qozog‘iston va Malayziya tajribasi……528
YUNUSOV BEGENCH MAVLANBERDIEVICH, MINASIPOV BURXAN BAXTIYOROVICH
Suv xo‘jaligi infratuzilmasidan samarali foydalanish — iqtisodiy barqarorlikning muhim omili……539
АЙТБАЕВА ГУЛЬЗАДА КУАНЫШБАЕВНА
Эффективные механизмы государственно-частного партнерства в сфере услуг……546
SADIQOV ZAFARBEK ADILBEKOVICH
Banklarda likvidlik ko‘rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilish……554
ODILOVA DILNOZA BARNAYEVNA
Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda intellektual kapitalning ko‘p omilli ta’sir mexanizmini takomillashtirish……563
IBODULLAYEV DOSTON SOBIRJON O‘G‘LI, DJURAYEV BEKZOD BEKMATOVICH
Sutchilik fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish va ozuqa bazasini rivojlantirish istiqbollari……574
QULMATOV CHORI ANOROVICH
Korxonalar moliyasini nazorat qilishning uslubiy asoslari……582
YAKUPOVA AYZADA NIZAMATDINOVNA
Agrar sohada barqaror rivojlanish mexanizmlarining xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish……590
XUDAYBERGANOV ZOXIDJON DJURAKULOVICH
Xizmat sohasida raqobatbardoshlik nazariyalari evolyutsiyasi va ularning raqamli iqtisodiyotdagi talqini……602
XONTO‘RAYEV IBROXIM ABDIKAMOL O‘G‘LI
Oliy ta’limda sun’iy intellekt asosidagi intellektual axborot tizimlaridan foydalanish……613

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

UO‘K: 339.137.2:004:330.837

XIZMAT SOHASIDA RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARI EVOLYUTSIYASI VA ULARNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI TALQINI

XUDAYBERGANOV ZOXIDJON DJURAKULOVICH
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: xudayberganov@janubiy.uztelecom.uz
https://orcid.org/0009-0007-8165-5338

Annotatsiya. Maqolada raqobatbardoshlik bo‘yicha ilmiy qarashlarning evolyutsiyasi tadqiq etilib, ularning axborot xizmatlari sohasiga tatbiq etilish imkoniyatlari baholangan. Nazariyalar rivojlanishi besh bosqichga ajratilgan va har bir bosqich tahlil birligi, ustunlik manbai hamda cheklovi bo‘yicha tavsiflangan. Tahlil natijasida tahlil birligining ketma-ket siljish traektoriyasi aniqlangan: mamlakat – tarmoq – korxona – kompetensiya – ekotizim. O‘n bitta ta’rif qiyosiy tahlil qilinib, ularning aksariyati moddiy ishlab chiqarishga mo‘ljallanganligi va xizmat sohasining uchta xususiyatini – nomoddiylik, ishlab chiqarish va iste’molning bir vaqtdaligi, sifatni oldindan baholashning cheklanganligini – hisobga olmasligi ko‘rsatilgan. Shu asosda axborot xizmatlari korxonasining raqobatbardoshligiga muallif ta’rifi taklif etilgan va u uch o‘lchovli konstruksiya orqali operatsionallashtirilgan.
Kalit so‘zlar: raqobatbardoshlik, nazariyalar evolyutsiyasi, raqobat ustunligi, dinamik qobiliyatlar, platforma nazariyasi, xizmat sohasi, axborot xizmatlari, tahlil birligi.

Аннотация. В статье исследована эволюция научных взглядов на конкурентоспособность и оценены возможности их применения к сфере информационных услуг. Развитие теорий разделено на пять этапов, каждый из которых охарактеризован по единице анализа, источнику преимущества и ограничениям. Выявлена траектория последовательного смещения единицы анализа: страна – отрасль – предприятие – компетенция – экосистема. Сравнительный анализ одиннадцати определений показал, что большинство из них ориентированы на материальное производство и не учитывают три особенности сферы услуг: нематериальность, одновременность производства и потребления, ограниченность предварительной оценки качества. На этой основе предложено авторское определение конкурентоспособности предприятия информационных услуг.
Ключевые слова: конкурентоспособность, эволюция теорий, конкурентное преимущество, динамические способности, теория платформ, сфера услуг, информационные услуги, единица анализа.

Abstract. The article examines the evolution of scholarly views on competitiveness and assesses their applicability to the information services sector. The development of theories is divided into five stages, each characterised by its unit of analysis, source of advantage and limitations. A trajectory of successive shifts in the unit of analysis is identified: country – industry – firm – competence – ecosystem. A comparative analysis of eleven definitions shows that most are oriented towards material production and fail to account for three features of services: intangibility, simultaneity of production and consumption, and limited ex-ante quality assessment. On this basis, an author's definition of the competitiveness of an information services enterprise is proposed.
Keywords: competitiveness, evolution of theories, competitive advantage, dynamic capabilities, platform theory, services sector, information services, unit of analysis.

KIRISH

Raqobatbardoshlik iqtisodiyot fanining eng ko‘p qo‘llaniladigan, ayni paytda eng noaniq tushunchalaridan biri bo‘lib qolmoqda. U mamlakat, tarmoq, korxona

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

va mahsulot darajasida bir xil atama bilan ifodalanadi, holbuki bu darajalarda uning mazmuni va o‘lchov mexanizmi keskin farq qiladi. Amaliyotda ushbu noaniqlik darajalar aralashib ketishiga olib keladi: milliy raqobatbardoshlik reytinglaridan olingan xulosalar alohida korxonalarga tatbiq etiladi yoki aksincha.

Muammoning ikkinchi qatlami nazariy apparatning kelib chiqishi bilan bog‘liq. Raqobatbardoshlik nazariyalari moddiy ishlab chiqarish sharoitida shakllangan va ularning asosiy tushunchalari – xarajat ustunligi, masshtab samarasi, ishlab chiqarish quvvati – moddiy tovarga mo‘ljallangan. Xizmat sohasida ushbu tushunchalarning bir qismi mazmunini yo‘qotadi yoki boshqacha ishlaydi.

Uchinchi qatlam raqamli iqtisodiyotga o‘tish bilan bog‘liq. Tarmoq samarasi, platforma modeli va ma’lumotlarning ishlab chiqarish resursiga aylanishi raqobat mexanizmini shu darajada o‘zgartirdiki, klassik nazariyalarning bir qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilmaydigan bo‘lib qoldi. Ayni paytda ular butunlay eskirgan ham emas – ularning qaysi qismi amal qilishini va qaysi qismi qayta ko‘rib chiqilishi kerakligini aniqlash zarur.

Tadqiqotning maqsadi – raqobatbardoshlik bo‘yicha ilmiy qarashlar evolyutsiyasini bosqichma-bosqich tahlil qilish, ularning xizmat sohasiga va raqamli iqtisodiyot sharoitiga tatbiq etilish imkoniyatlarini baholash hamda axborot xizmatlari korxonasi uchun mos ta’rifni asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqobat afzalliklari to‘g‘risidagi dastlabki tizimli qarashlar A. Smitning mutlaq ustunlik va D. Rikardoning qiyosiy ustunlik nazariyalarida shakllangan. Ushbu yondashuvlarda tahlil birligi mamlakat bo‘lib, ustunlik manbai sifatida mehnat unumdorligidagi tabiiy farqlar qaralgan. Ularning cheklovi shundaki, ustunlik berilgan va o‘zgarmas deb hisoblanadi – uni yaratish yoki yo‘qotish mexanizmi tushuntirilmaydi.

M. Porterning raqobat ustunligi nazariyasi tahlil birligini tarmoq va korxona darajasiga tushirdi. Muallif tarmoq tuzilmasini besh kuch modeli orqali tavsiflab, raqobat ustunligining ikki asosiy turini – xarajat yetakchiligi va differensiatsiyani – ajratgan. Ushbu nazariyaning kuchli tomoni operatsionallashuv darajasining yuqoriligi, cheklovi esa statik xarakteri: u muayyan vaqt kesimidagi holatni tavsiflaydi, ustunlikning shakllanish jarayonini emas.

Resurs yondashuvi J. Barney tomonidan rivojlantirilgan bo‘lib, unda raqobat ustunligi tashqi tarmoq tuzilmasidan emas, korxonaning ichki resurslaridan kelib chiqadi. Barqaror ustunlik beruvchi resurs to‘rt mezonga javob berishi kerak: qimmatli, noyob, taqlid qilish qiyin va o‘rin bosuvchisi yo‘q. C. Prahalad va G. Hamel esa asosiy kompetensiya tushunchasini kiritib, tahlil birligini alohida resursdan ularning kombinatsiyasiga o‘tkazgan.

D. Teece tomonidan taklif etilgan dinamik qobiliyatlar nazariyasi resurs yondashuvining statik cheklovini bartaraf etishga qaratilgan. Unga ko‘ra, barqaror ustunlikni resurslarning o‘zi emas, ularni o‘zgaruvchan muhitga moslab

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

qayta shakllantirish qobiliyati ta’minlaydi. Ushbu yondashuv tez o‘zgaruvchan texnologik sohalar uchun eng mos hisoblanadi.

So‘nggi bosqichda platforma va tarmoq samarasi nazariyalari rivojlandi. M. Katz va C. Shapiro tarmoq tashqi effektlarining raqobatga ta’sirini asoslagan, G. Parker va hammualliflar esa platforma biznes-modelini tizimli tavsiflab, unda qiymat yaratish mexanizmi an’anaviy qiymat zanjiridan tubdan farq qilishini ko‘rsatgan. Ushbu bosqichda tahlil birligi yakka korxonadan ekotizimga ko‘chdi.

Xizmat sohasining o‘ziga xosligi bo‘yicha adabiyotda uchta asosiy xususiyat ajratiladi: nomoddiylik, ishlab chiqarish va iste’molning bir vaqtda kechishi, hamda sifatning o‘zgaruvchanligi. P. Nelson tomonidan taklif etilgan tovarlar tasnifi ushbu masalani axborot asimmetriyasi nuqtai nazaridan yoritadi. Mavjud adabiyotlar tahlilining xulosasi shundan iboratki, umumiy nazariyalar yaxshi ishlab chiqilgan, ammo ularning axborot xizmatlari sohasiga moslashtirilgan talqini yetarlicha shakllantirilmagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy tahlil, kontent-tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan. Nazariyalarni bosqichlarga ajratishda uchta mezon qo‘llanilgan: tahlil birligining o‘zgarishi (mamlakat, tarmoq, korxona, kompetensiya, ekotizim); ustunlik manbai to‘g‘risidagi tasavvurning o‘zgarishi; tahlilning statik yoki dinamik xarakteri.

Ta’riflarni qiyoslashda har bir ta’rif to‘rt parametr bo‘yicha kodlangan: tahlil darajasi; ustunlikning asosiy manbai; vaqt ufqi (statik yoki dinamik); xizmat sohasiga tatbiq etilish darajasi. So‘nggi parametr uch ballli shkala bo‘yicha baholangan: to‘liq tatbiq etiladi, qisman tatbiq etiladi, tatbiq etilmaydi.

Xizmat sohasiga tatbiq etilish darajasini baholashda mezon sifatida xizmatning uchta xususiyati qabul qilingan: nomoddiylik (mahsulotni zaxiraga ishlab chiqarish mumkin emas); ishlab chiqarish va iste’molning bir vaqtdaligi (mijoz jarayonda ishtirok etadi); sifatni oldindan baholashning cheklanganligi. Agar ta’rif ushbu xususiyatlarni hisobga olmasa yoki ularga zid kelsa, tatbiq etilish darajasi past deb baholangan. Tadqiqotning cheklovi shundan iboratki, baholash sifat mezonlari asosida amalga oshirilgan va u ma’lum darajada muallif talqiniga bog‘liq. Bundan tashqari, tahlilga asosan ingliz va rus tillaridagi manbalar jalb qilingan.


NATIJALAR VA MUHOKAMA

Raqobatbardoshlik nazariyalari evolyutsiyasining bosqichlari 1-rasmda umumlashtirilgan.

1-rasmning quyi qismida keltirilgan ketma-ketlik tadqiqotning asosiy topilmasini ifodalaydi: tahlil birligi bosqichma-bosqich yiriklashuvdan mayda birlikka, so‘ngra yana yiriklashuvga qarab harakat qilgan. Dastlab mamlakat, keyin tarmoq, so‘ng korxona, undan keyin korxona ichidagi kompetensiya va nihoyat korxonalar birlashmasi – ekotizim.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Bunday traektoriyaning izohi quyidagicha. Tahlil birligining maydalashuvi tushuntirish aniqligini oshirishga bo‘lgan intilish natijasi edi: mamlakat darajasidagi ustunlik alohida korxonaning muvaffaqiyatini izohlamaydi. Oxirgi bosqichdagi yiriklashuv esa boshqa sababga ega – raqamli iqtisodiyotda qiymat yakka korxona ichida emas, o‘zaro bog‘langan ishtirokchilar tarmog‘ida yaratiladi va uni bitta korxona doirasida tahlil qilib bo‘lmaydi.



Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-rasm. Raqobatbardoshlik nazariyalari evolyutsiyasining bosqichlari va tahlil birligining siljishi

Bosqichlar davomiyligining qisqarib borishi ham diqqatga sazovor: birinchi bosqich ikki asrni, keyingilari esa o‘n-yigirma yilni qamrab oladi. Bu ilmiy bilimning to‘planish tezligining oshishini va texnologik o‘zgarishlar sur’atining nazariy apparatga bosimini ko‘rsatadi.

Sxemada keltirilgan mualliflar ro‘yxati to‘liq emas va u har bir bosqichning eng ko‘p iqtibos qilinadigan vakillarini ifodalaydi. Bosqichlar orasidagi chegara ham shartli xarakterga ega: yondashuvlar bir-birini inkor etmaydi, balki parallel rivojlanadi. Porter modeli bugungi kunda ham keng qo‘llaniladi, resurs yondashuvi esa dinamik qobiliyatlar nazariyasi doirasida rivojlanishda davom etmoqda.

Shu bilan birga, davriylashtirishning tahliliy qiymati saqlanadi: u har bir davrda qaysi savol markaziy bo‘lganini va nima uchun yangi yondashuv paydo bo‘lganini ko‘rsatadi. Aynan shu mantiq keyingi jadvalda batafsil ochib beriladi.

Bosqichlarning batafsil tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval tahlili ustunlik manbai to‘g‘risidagi tasavvurning tub o‘zgarishini ko‘rsatadi. Birinchi bosqichda manba tashqi va berilgan (tabiiy sharoit, mehnat unumdorligi), ikkinchi bosqichda ham tashqi, ammo tanlanadigan (tarmoqdagi mavqe), uchinchi bosqichdan boshlab esa ichki va yaratiladigan bo‘lib qoladi. Beshinchi bosqichda manba yana tashqariga chiqadi, ammo endi u tarmoq tuzilmasi emas, hamkorlar tarmog‘i hisoblanadi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

1-jadval

Raqobatbardoshlik nazariyalari bosqichlarining qiyosiy tavsifi

Bosqich va davr	Asosiy vakillari	Tahlil birligi	Ustunlik manbai	Xarakteri	Asosiy cheklovi
I. Klassik, 1776-1817	A. Smit, D. Rikardo	Mamlakat	Mehnat unumdorligidagi tabiiy farqlar	Statik	Ustunlik berilgan deb qaraladi; uni yaratish mexanizmi yo‘q
II. Tarmoq tahlili, 1980-1990	M. Porter	Tarmoq va korxona	Tarmoq tuzilmasidagi mavqe	Statik	Vaqt kesimidagi holatni tavsiflaydi; jarayonni emas
III. Resurs yondashuvi, 1991-2000	J. Barney, C. Prahalad, G. Hamel	Korxona resurslari va kompetensiyalari	Noyob va taqlid qilinishi qiyin resurslar	Statik-dinamik	Resurslarni qanday yaratish kerakligi ochilmagan
IV. Dinamik qobiliyatlar, 2001-2010	D. Teece	Qayta shakllantirish qobiliyati	Muhitga moslashuv va resurslarni qayta tuzish	Dinamik	Operatsionallashuv darajasi past; o‘lchash qiyin
V. Platforma va ekotizim, 2011 - hozir	M. Katz, C. Shapiro, G. Parker	Ekotizim, platforma	Tarmoq samarasi, ma’lumot, hamkorlar bazasi	Dinamik	Konseptual apparat shakllanish jarayonida

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xarakteri ustuni nazariy apparatning asosiy zaifligini ochib beradi. Dastlabki uch bosqich statik yoki yarim statik bo‘lib, ular ustunlikni holat sifatida qaraydi. Tez o‘zgaruvchan sohalarda esa bunday yondashuv yetarli emas: bugungi ustunlik ertaga yo‘qolishi mumkin. Aynan shu bo‘shliq dinamik qobiliyatlar nazariyasining paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Cheklovlar ustunidan bosqichlararo mantiqiy bog‘liqlik ko‘rinadi: har bir bosqichning cheklovi keyingi bosqichning vazifasiga aylangan. Klassik nazariyada ustunlikning yaratilish mexanizmi yo‘qligi Porter nazariyasida tarmoq tanlash orqali hal qilingan; Porter nazariyasining statikligi resurs yondashuvi bilan yumshatilgan; resurs yondashuvining “resurslarni qanday yaratish kerak” degan savoli dinamik qobiliyatlar nazariyasida ko‘tarilgan.

Beshinchi bosqichning cheklovi hali hal etilmagan: platforma va ekotizim nazariyalarining konseptual apparati shakllanish jarayonida bo‘lib, ularda umum e’tirof etilgan o‘lchov metodikalari mavjud emas. Bu amaliy tadqiqotlar uchun jiddiy muammo tug‘diradi va u mazkur ish doirasida ham hisobga olinadi: baholash metodikasini ishlab chiqishda dinamik qobiliyatlar va platforma yondashuvlarining elementlari operatsionallashtirilgan shaklda qo‘llaniladi.

Tahlil birligi ustunidan amaliy ahamiyatga ega yana bir xulosa chiqadi. Raqobatbardoshlik to‘g‘risida gapirilganda qaysi daraja nazarda tutilayotgani aniq belgilanishi shart, aks holda tahlil mantiqiy xatoga uchraydi. Mamlakat darajasidagi ustunlik korxona darajasidagi ustunlikni kafolatlamaydi: qulay soliq rejimi mavjud bo‘lgan mamlakatda ham ayrim kompaniyalar bozorda ushlanib qola olmaydi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Teskari holat ham kuzatiladi: noqulay makroiqtisodiy sharoitda ham alohida kompaniyalar global bozorda muvaffaqiyat qozonishi mumkin, chunki ularning ustunligi ichki resurslardan kelib chiqadi. Mazkur tadqiqotda shu sababli asosiy tahlil birligi sifatida korxona tanlangan, mamlakat darajasidagi omillar esa tashqi shart-sharoit sifatida qaraladi.

Nazariyalarning xizmat sohasiga tatbiq etilish darajasi 2-jadvalda baholangan.

2-jadval

Raqobatbardoshlik ta'riflarining qiyosiy tahlili va xizmat sohasiga tatbiq etilishi

Yondashuv yoki manba	Ta'rifning asosiy urg'usi	Tahlil darajasi	Vaqt ufqi	Xizmat sohasiga tatbiq etilishi
Qiyosiy ustunlik nazariyasi	Nisbiy xarajat ustunligi	Mamlakat	Statik	Qisman: xizmat eksportiga tatbiq etiladi
M. Porter (xarajat yetakchiligi)	Eng past xarajat evaziga ustunlik	Korxona	Statik	Qisman: mehnat xarajati asosiy komponent
M. Porter (differensiatsiya)	Mahsulotning noyob xususiyatlari	Korxona	Statik	To'liq: kompetensiya orqali amalga oshadi
J. Barney (resurs yondashuvi)	Noyob, taqlid qilinishi qiyin resurslar	Korxona	Statik-dinamik	To'liq: kadrlar va jarayonlar aynan shunday resurs
Prahalad va Hamel	Asosiy kompetensiya	Korxona	Dinamik	To'liq: texnologik stek va metodologiya
D. Teece (dinamik qobiliyatlar)	Resurslarni qayta shakllantirish qobiliyati	Korxona	Dinamik	To'liq: texnologiya almashinuvi tez kechadi
Tarmoq samarasi nazariyasi	Foydalanuvchilar soniga bog'liq qiymat	Bozor	Dinamik	Qisman: platforma xizmatlarida amal qiladi
Platforma nazariyasi	Ko'p tomonlama bozorni tashkil etish	Ekotizim	Dinamik	Qisman: buyurtma segmentida ishlamaydi
Jahon iqtisodiy forumi yondashuvi	Milliy mahsuldorlik darajasi	Mamlakat	Statik	Tatbiq etilmaydi: korxona darajasiga tushmaydi
Xarajat-narx yondashuvi	Narx bo'yicha ustunlik	Mahsulot	Statik	Tatbiq etilmaydi: sifat oldindan baholanmaydi
Bozor ulushi yondashuvi	Bozordagi ulush kattaligi	Korxona	Statik	Tatbiq etilmaydi: global bozorda ulush o'lchanmaydi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadval tahlili o'n bitta yondashuvdan to'rttasi axborot xizmatlari sohasiga to'liq, to'rttasi qisman tatbiq etilishini va uchtasi tatbiq etilmasligini ko'rsatadi. To'liq tatbiq etiladigan yondashuvlarning umumiy jihati diqqatga sazovor: ularning barchasi ustunlik manbaini korxonaning ichki resurslari va qobiliyatlarida ko'radi.

Tatbiq etilmaydigan uchta yondashuvni alohida ko'rib chiqish zarur, chunki aynan ular amaliyotda eng ko'p qo'llaniladi. Jahon iqtisodiy forumi tipidagi milliy

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

reytinglar mamlakat darajasida shakllantiriladi va ularni korxonaga o‘tkazish mumkin emas; ular hududiy siyosat uchun foydali, korxona strategiyasi uchun esa axborot bermaydi.

Xarajat-narx yondashuvi axborot xizmatlarida ishlamasligining sababi mahsulotning tajriba xarakteriga ega bo‘lishida. Buyurtmachi dasturiy ta’minot ishlab chiqish xizmatini sotib olayotganda uning sifatini oldindan tekshira olmaydi, shu sababli faqat narxga tayanib tanlov qilish uning uchun yuqori riskli. Amaliyotda past narx ko‘pincha teskari signal beradi va ishonchsizlikni kuchaytiradi.

Bozor ulushi yondashuvining yaroqsizligi esa bozor chegarasining noaniqligi bilan bog‘liq. Eksportga yo‘naltirilgan dasturiy ta’minot kompaniyasi global bozorda ishlaydi, uning ulushi esa foizning mingdan bir qismini tashkil etadi. Bunday ko‘rsatkich hech qanday tahliliy ma’noga ega emas va u kompaniyalarni qiyoslash uchun ishlatib bo‘lmaydi.

Umumiy uslubiy xulosa quyidagicha: axborot xizmatlari korxonasining raqobatbardoshligini baholashda resurs va kompetensiya yondashuvlariga tayanish maqsadga muvofiq, an’anaviy narx va bozor ulushi ko‘rsatkichlaridan esa voz kechish yoki ularni yordamchi rolda qoldirish lozim.

Ta’riflar tahlilining yana bir natijasi vaqt ufqi ustunida jamlangan. O‘n bitta yondashuvdan oltitasi statik, beshtasi dinamik xarakterga ega. Statik yondashuvlarning ustunligi ularning o‘lchanuvchanligida: muayyan vaqt kesimidagi holatni baholash nisbatan oson. Dinamik yondashuvlar mazmunan to‘g‘riroq, ammo ular uzoq davrli kuzatuvni talab qiladi.

Amaliy yechim ikkalasining kombinatsiyasida ko‘rinadi: baholash bir vaqt kesimida amalga oshiriladi, ammo indikatorlar tarkibiga dinamik ko‘rsatkichlar — o‘sish sur’ati, texnologiya yangilanish tezligi, kadrlar qo‘nimliligi — kiritiladi. Bunday yondashuv statik o‘lchov doirasida dinamik jihatni qisman qamrab olish imkonini beradi va u keyingi maqolada indikatorlar tizimini shakllantirishda qo‘llaniladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobat ustunligi manbalarining o‘zgarishi 3-jadvalda umumlashtirilgan.

3-jadval tahlili raqamli sharoitda raqobat ustunligining tabiati ikki yo‘nalishda o‘zgarganini ko‘rsatadi. Birinchi yo‘nalish – barqarorlikning pasayishi: ilgari o‘n-yigirma yil saqlangan ustunlik endi ikki-besh yilda yo‘qoladi. Bu dinamik qobiliyatlar nazariyasining amaliy dolzarbligini asoslaydi va strategik rejalashtirish ufqini qisqartiradi.

Ikkinchi yo‘nalish – asosiy aktivning moddiy shakldan nomoddiy shaklga o‘tishi. Dasturiy ta’minot kompaniyasining eng qimmatli aktivi – uning jamoasi va to‘plangan metodologiyasi – buxgalteriya balansida aks etmaydi. Bu moliyaviy tahlil vositalarining cheklovini yuzaga keltiradi: kapital rentabelligi yoki aktivlar aylanmasi kabi ko‘rsatkichlar bunday kompaniya uchun deyarli axborot bermaydi.

Uchinchi muhim o‘zgarish so‘nggi qatorda qayd etilgan. An’anaviy bozorda tranzaksiya sotuv bilan yakunlanadi, raqamli xizmatlarda esa u aloqaning

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

boshlanishi hisoblanadi: qo‘llab-quvvatlash, yangilash, kengaytirish davom etadi. Natijada mijozni saqlab qolish ko‘rsatkichi yangi mijoz jalb qilish ko‘rsatkichidan muhimroq bo‘lib qoladi va u raqobatbardoshlikning bevosita indikatoriga aylanadi.

3-jadval

An’anaviy va raqamli sharoitda raqobat ustunligi manbalarining qiyosi

Tavsif	An’anaviy sharoit	Raqamli iqtisodiyot sharoiti	O‘zgarishning oqibati
Ustunlikning asosiy manbai	Kapital, masshtab, joylashuv	Kompetensiya, ma’lumot, tezlik	Kirish to‘siqlari pasayadi, dinamika oshadi
Ustunlikning barqarorligi	10-20 yil saqlanadi	2-5 yil, texnologiya almashinuvi bilan yo‘qoladi	Doimiy yangilanish zarurati
Bozor chegarasi	Geografik jihatdan aniq	Global, chegarasiz	Raqobatchilar soni keskin ortadi
Masshtab samarasining manbai	Ishlab chiqarish hajmi	Foydalanuvchilar soni va ma’lumot hajmi	Konsentratsiyaga moyillik kuchayadi
Asosiy aktiv	Asosiy fondlar, balansda aks etadi	Inson kapitali va jarayonlar, balansda yo‘q	An’anaviy moliyaviy tahlil yetarli emas
Innovatsiya sikli	Uzoq, rejalashtiriladigan	Qisqa, iterativ	Boshqaruv modeli moslashuvchan bo‘lishi kerak
Mijoz bilan aloqa	Bir martalik oldi-sotdi	Uzoq muddatli hamkorlik va obuna	Mijozni saqlab qolish asosiy ko‘rsatkichga aylanadi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Innovatsiya sikli qatori boshqaruv modeliga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Uzoq va rejalashtiriladigan sikl sharoitida yillik rejalashtirish va qat’iy byudjet tizimi samarali ishlaydi. Qisqa va iterativ sikl sharoitida esa bunday tizim to‘siqqa aylanadi: rejaga kiritilmagan imkoniyat paydo bo‘lganda kompaniya unga javob bera olmaydi.


Bu jihat davlat qo‘llab-quvvatlash vositalariga ham tegishli. Uzoq muddatli tasdiqlash tartibiga ega grant yoki subsidiya mexanizmi texnologiya olti oyda eskirib ulguradigan sohada samarasiz bo‘ladi. Shu sababli raqamli sohada qo‘llab-quvvatlash vositalarining muhim talabi – qaror qabul qilish muddatining qisqaligi. Ushbu talab keyingi maqolalarda mexanizmni loyihalashda hisobga olinadi.

Nazariy tahlil natijasida raqobat ustunligining uch o‘lchovli modeli shakllantirildi (2-rasm).

Modelning klassik ikki o‘lchovli konstruksiyadan farqi uchinchi o‘lchov – tezlik ustunligining kiritilishida. Porter modelida raqobat ustunligining ikki turi ajratilgan: xarajat yetakchiligi va differensiatsiya. Axborot xizmatlari sohasida esa uchinchi o‘lchov mustaqil ahamiyat kasb etadi, chunki bu yerda bozorga chiqish muddati va talab o‘zgarishiga javob berish tezligi bevosita raqobat omili hisoblanadi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Tezlik ustunligining alohida o‘lchov sifatida ajratilishi nazariy jihatdan dinamik qobiliyatlar yondashuviga borib taqaladi. Amaliy jihatdan esa u aniq ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanadi: loyihani ishga tushirish muddati, o‘zgarishlarni joriy etish tsikli, yangi texnologiyani o‘zlashtirish vaqti. Ushbu ko‘rsatkichlarning barchasi kuzatiladigan va taqqoslanadigan bo‘lib, ular baholash metodikasiga kiritilishi mumkin.



Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-rasm. Axborot xizmatlari sohasida raqobat ustunligining uch o‘lchovli modeli

Modelning markazidagi kesishma qismi barqaror ustunlikni ifodalaydi. Uning mazmuni shundaki, uchta o‘lchovning faqat bittasi bo‘yicha ustunlik uzoq muddatda saqlanmaydi. Faqat narx ustunligiga tayangan kompaniya arzonroq mamlakat paydo bo‘lishi bilan bozorni yo‘qotadi; faqat texnologik kompetensiyaga tayangan kompaniya esa muddatlarni buzsa buyurtmachini yo‘qotadi.

O‘tkazilgan tahlil asosida mualliflik ta’rifi taklif etiladi: axborot xizmatlari korxonasining raqobatbardoshligi – bu korxonaning global bozorda talab qilinadigan sifat darajasini ta’minlagan holda, texnologik kompetensiyalarini muhit o‘zgarishlariga muvofiq uzluksiz yangilab borish va shu asosda mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni saqlab qolish qobiliyatidir.

Ta’rifning uchta farqli jihati mavjud. Birinchidan, unda bozor sifatida global bozor belgilangan – bu segmentning geografik chegarasizligini hisobga oladi va mahalliy bozordagi ustunlikni raqobatbardoshlik dalili sifatida qabul qilmaydi. Ikkinchidan, ustunlik holat emas, jarayon sifatida ta’riflangan: “yangilab borish qobiliyati” dinamik xarakterni ifodalaydi. Uchinchidan, natija ko‘rsatkichi sifatida sotuv hajmi emas, mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlik belgilangan.

Ta’rifning operatsionallashuvi uch o‘lchovli model orqali amalga oshiriladi: narx ustunligi mehnat xarajati va soliq rejimi orqali, kompetensiya ustunligi kadrlar malakasi va texnologik stek orqali, tezlik ustunligi esa loyiha tsikli

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

ko‘rsatkichlari orqali o‘lchanadi. Ushbu bog‘liqlik keyingi maqolada indikatorlar tizimini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’rifning cheklovini ham qayd etish lozim. Unda ichki bozorga yo‘naltirilgan kompaniyalar qamrab olinmagan, holbuki sohada ular ham sezilarli ulushni egallaydi. Bunday kompaniyalar uchun ta’rifni moslashtirish talab etiladi: global bozor o‘rniga tegishli segment bozori qo‘yiladi, qolgan elementlar esa o‘zgarishsiz saqlanadi.

Shuningdek, ta’rifda mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlik natija ko‘rsatkichi sifatida belgilangani muayyan cheklovni yuzaga keltiradi: yangi tashkil etilgan kompaniyalar uchun bu ko‘rsatkich hali shakllanmagan bo‘ladi. Ular uchun baholashda o‘tish davri mezonlarini qo‘llash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, raqobatbardoshlik nazariyalarining evolyutsiyasi besh bosqichga ajratildi. Tahlil birligi ketma-ket siljigan: mamlakat – tarmoq – korxona – kompetensiya – ekotizim. Dastlabki siljishlar tushuntirish aniqligini oshirish maqsadida, so‘nggisi esa qiymat yaratish mexanizmining o‘zgarishi tufayli yuz bergan.

Ikkinchidan, har bir bosqichning cheklovi keyingi bosqichning vazifasiga aylangan. Hozirgi bosqichning hal etilmagan muammosi – platforma va ekotizim nazariyalarining operatsionallashuv darajasi pastligi va umum e’tirof etilgan o‘lchov metodikasining yo‘qligi.

Uchinchidan, o‘n bitta yondashuvdan to‘rttasi axborot xizmatlari sohasiga to‘liq, to‘rttasi qisman tatbiq etiladi, uchtasi esa tatbiq etilmaydi. Tatbiq etilmaydigan yondashuvlar aynan amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladiganlar – milliy reytinglar, xarajat-narx va bozor ulushi ko‘rsatkichlari.

To‘rtinchidan, raqamli sharoitda ustunlikning barqarorlik muddati 10-20 yildan 2-5 yilgacha qisqargan, asosiy aktiv esa moddiy shakldan nomoddiy shaklga o‘tgan. Bu an’anaviy moliyaviy tahlil vositalarining yetarli emasligini bildiradi.

Beshinchidan, axborot xizmatlari sohasida raqobat ustunligining uch o‘lchovli modeli asoslandi: narx, differensiatsiya va tezlik. Uchinchi o‘lchov klassik modelga qo‘shimcha bo‘lib, u dinamik qobiliyatlar yondashuvining operatsional ifodasi hisoblanadi.

Oltinchidan, mualliflik ta’rifi taklif etildi va u uch o‘lchovli model orqali operatsionallashtirildi. Keyingi tadqiqotda ushbu ta’rif asosida raqobatbardoshlik omillari va tamoyillari tizimi shakllantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985. – 557 p.

2. Barney J. Firm resources and sustained competitive advantage // Journal of Management. – 1991. – Vol. 17, No. 1. – P. 99-120.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

3. Prahalad C.K., Hamel G. The core competence of the corporation // Harvard Business Review. – 1990. – Vol. 68, No. 3. – P. 79-91.

4. Teece D.J., Pisano G., Shuen A. Dynamic capabilities and strategic management // Strategic Management Journal. – 1997. – Vol. 18, No. 7. – P. 509-533.

5. Katz M.L., Shapiro C. Network externalities, competition, and compatibility // The American Economic Review. – 1985. – Vol. 75, No. 3. – P. 424-440.

6. Parker G.G., Van Alstyne M.W., Choudary S.P. Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy. – New York: W.W. Norton & Company, 2016. – 352 p.

7. Nelson P. Information and consumer behavior // Journal of Political Economy. – 1970. – Vol. 78, No. 2. – P. 311–329.

8. Shapiro C., Varian H.R. Information Rules: A Strategic Guide to the Network Economy. – Boston: Harvard Business School Press, 1999. – 352 p.

9. Arora A., Gambardella A. The globalization of the software industry: Perspectives and opportunities for developed and developing countries // Innovation Policy and the Economy. – 2005. – Vol. 5. – P. 1-32.

10. Baldwin R. The Great Convergence: Information Technology and the New Globalization. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2016. – 344 p.

11. Digital Economy Report: Value Creation and Capture — Implications for Developing Countries. – Geneva: UNCTAD, 2019. – 194 p.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” // Lex.uz.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko‘chasi, 2-uy**